

“ZEVARXON” DOSTONINING IKKI VERSIYASI HAQIDA MULOHAZALAR

Munis Yunusovna JO‘RAYEVA

filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori
O‘zbekiston Respublikasi FA O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti
Toshkent, O‘zbekiston

Nigora Shuhratovna ABDUSALOMOVA

tayanch doktorant
O‘zbekiston Respublikasi FA O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek xalq dostonchiligi xazinasini boytishga xizmat qilgan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Malika ayyor”, “Yusuf va Ahmad”, “Rustamxon”, “Xilomon”, “Bozirgon” kabi qator dostonlarni mohirona kuylagan chechan baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li hamda qissaxon baxshi-shoir Rahmatilla Yusuf o‘g‘li tomonidan ijro etilgan “Zevarxon” dostoni haqida so‘z yuritiladi.

Tayansh so‘zlar: baxshi, doston, “Zevarxon”, syujet, Fozil shoir, Rahmatilla Yusuf o‘g‘li, baxshichilik.

РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДВУХ ВЕРСИЯХ ДАСТАНА “ЗЕВАРХОН”

Мунис Юнусовна ЖУРАЕВА

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Институт узбекского языка, литературы и фольклора
АН Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан

Нигора Шухратовна АБДУСАЛОМОВА

базовый докторант
Институт узбекского языка, литературы и фольклора
АН Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье рассматривается дастан “Зевархон”, исполненный известными узбекскими бахши – мастером эпического повествования Фозилом Йўлдош угли, который внёс значительный вклад в обогащение сокровищницы узбекского народного эпоса, исполнив такие дастаны, как “Алпомиш”, “Гўрўғли”, “Малика Айёр”, “Юсуф ва Ахмад”, “Рустамхон”, “Хиломон”, “Бозиргон”, а также бахши-поэтом и сказителем Рахматиллой Юсуф угли.

Ключевые слова: бахши, дастан, “Зевархон”, сюжет, Фозил шоир, Рахматилла Юсуф угли, искусство бахши.

“Zevarxon” dostoni xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiy an‘analarning o‘zaro uzviy aloqasi natijasida vujudga kelgan ko‘p qatlamli epik asardir. Doston

bizgacha ko‘plab baxshilar tomonidan ijro etilgan, ijodiy qayta ishlangan va xilma-xil versiya hamda variantlarda, turli nomlar ostida og‘zaki hamda yozma shakllarda yetib kelgan. Bu doston syujeti “Kitobi Sanobar”, “Qissai Sanobar”, “Shahzoda Sanobar”, “Gul va Sanobar” kabi nomlar bilan nafaqat o‘zbeklar orasida, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari doirasida ham keng tarqalgan va shuhrat qozongan. Uning qo‘lyozma va litografik nusxalari mavjud bo‘lib, ularning bir qismi hozirgi kungacha yetib kelgan.

Doston syujetining yozma shakllari – qo‘lyozma va litografik nusxalar, shuningdek, baxshilar ijrosidagi og‘zaki variantlari birgalikda o‘rganilganda, ularning xalq og‘zaki ijodiga xosliklari bilan birga, kitobiy xususiyatlarini ham o‘zida mujassam etgan murakkab, sintezlashgan tabiatga ega ekanligi ayon bo‘ladi. Ayniqsa, “Zevarxon” dostonining XX asr boshlariga oid litografik nashrlari mazkur jihatlarni tadqiq etishda alohida ahamiyatga ega. Xususan, dostonning 1903-yilda Kogon va Toshkentda, 1908-yilda Qozonda, 1909–1910-yillarda Toshkentda, 1910-yilda Samarqandda, 1911-yilda esa Buxoroda chop etilgan litografik nashrlari aniqlangan.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li kabi baxshilar tomonidan og‘zaki shaklda ijro etilgan variantlar kitobiy versiyalar bilan uzviy ravishda uyg‘unlashib, poetik shakl va obrazlar tizimida estetik o‘zgarishga uchragan. “Zevarxon” dostonining bugungi kunda ikkita versiyasi mavjud. Jonli ijrodan yozib olingan yagona versiya Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li repertuariga oid bo‘lib, Muzayyana Alaviya tomonidan 1945-yilda yozib olingan, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutidagi Folklor arxivida 955-inventar raqami ostida saqlanadi. Mavjud ikkinchi versiya esa 1947-yilda Rahmatulla Yusuf o‘g‘lining o‘zi tomonidan ko‘chirilib, Folklor arxiviga topshirilgan va 1445-raqamli inventarga olingan. Hajmi 86 sahifa. Dostonning mavjud versiyalari Qo‘rg‘on va Bulung‘ur dostonchilik maktabi ijodkorlari repertuarida aniqlangani, bu dostonning aynan shu baxshichilik maktablari mahsuli ekanligini dalillaydi. Ushbu hududlarda o‘tkazilgan to‘y va marosimlarda “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon”, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi qahramonlik dostonlarini kuylash xalq

baxshilari ijodida an'anaga aylanibgan edi. Biroq og'ir mehnat, qiyin turmush tarzidan charchagan qishloq aholisi, sarguzasht va muhabbat mavzusidagi dostonlardan qahramonlik dostonlarini tinglashni afzal ko'rishgan. Hatto ayrim hollarda baxshi ishqiy-sarguzashtik dostonni kuylayotganida, tinglovchilar ijroni to'xtatgan holatlar bo'lgan. Shunday holatlarning biri Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosi chog'ida sodir bo'lgan. Kunlarning birida, qandaydir qishloqda shahzoda Sanobarning sarguzashtlari haqida kuylab turganida, tinglovchilar orasidan bir dehqon uni to'xtatib, "muhabbat dardida yig'lovchi ahmoqning nolasini haqidagi zerikarli hikoyangni yig'ishtir! Yaxshisi, odamning ruhini ko'taradigan qahramonlik dostonlarini kuyla"[1.35-bet], deb tanbeh bergan. Ana shundan keyin Fozil shoir tinglovchilarning didiga va ishtiyoqiga qarab, doston tanlashga e'tibor bergan. Ayni shu o'rinda diqqatni tortadigan bir ma'lumot – Fozil shoirning shahzoda Sanobarning sarguzashtlari haqida kuylayotganligi. "O'zbek xalq qahramonlik eposi"da mualliflar: "Sanobar"ning og'zaki varianti Fozil shoir va Islom shoir repertuarida qayd qilingan (oxirgi qaydda "Sanobarjon" deb nomlangan). Ammo afsuski, hozirgacha bu variant yozib olinmagan [1.287-b.], deb ma'lumot qoldirganlar. E'tiborga loyiq jihati har ikkala o'rinda ham Sanobar deyilib, Zevarxon nomi tilga olinmasligi. Birozdan keyin esa Fozil shoir va Po'ltan shoir repertuarida "Zevarxon" dostoni mavjudligi hamda Fozil shoir repertuaridan yozib olingan "Zevarxon" dostoni haqidagi mulohazalar [1.292–293-b.] bayon qilinadi. Bu dalillar bizga shahzoda Sanobarning sarguzashtlari haqidagi doston xalq baxshilari repertuarida mavjudligi, ammo "Zevarxon" va "Sanobar" alohida epik namunalar ekanligini ko'rsatadi.

Ishqiy-sarguzashtik dostonlar auditoriya talabi bilan kam ijro qilinishi, "Sanobar" xalq kitobining syujet va badiiy poetikasi xalq og'zaki ijodi asarlariga xosligi, bu asarlarni jonli ijrodan yozib olish boshlangunga qadar kitob holida tarqalgani uning xalq baxshilari ijodida shakllanib, mavjud vaziyat taqozosi bilan "xalq kitobi" tarzida yoyilganini bildiradi (Zero uning yozma adabiyot mahsuli sifatida shakllanganini asoslaydigan birorta manba mavjud emas). "O'zbek xalq qahramonlik eposi"da "shahzoda Sanobarning sarguzashtlarini..." deyilsa-da,

Fozil shoir ijrosidan Sanobarning sarguzashtlari haqida biror ijod namunasi yozib olinmagan.

Nazarimizda, Sanobarning ishqiy sarguzashtiga asoslangan doston avval xalq baxshilaridan eshitilib, xotirada saqlagan, soʻngra havaskor qissaxonlar tomonidan shaharda kuylangan va shu tarzda mashhur boʻlgan. Shu jarayonda professional baxshilar emas, balki xalq ogʻzaki ijodiga ixlosmand savodli shaxslar, qissaxonlar faol boʻlgan. Dostonning kitob holida ommalashuvi esa, aynan shu auditoriyaga moslashganligini bildiradi. Natijada “Sanobar” dostoni “xalq kitobi” shaklida keng kitobxonlar auditoriyasiga tarqalib, “kitobiy doston” nomini olgan. Bu hodisa bizga V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlar aytganidek [1.288-b], Sanobarning sarguzashtlari(“Kitobi Sanobar”, “Zevarxon” nazarda tutilgan) XIII–XIV asrlarga oid fors xalq romani “Gul va Sanobar”ga tayanmasligini yoki folklorshunos R.Radjabov aytganidek [2. 26-b.], bizning adabiyotimizga fors xalq kitobi “Gul va Sanobar” xalq kitobi sifatida kirib kelmaganini, oʻzbek xalq baxshilari auditoriyasida “Sanobar” va “Zevarxon” nomli mustaqil epik namunalar sifatida yashab kelganini isbotlaydi. Fikrimizni Rahmatulla Yusuf oʻgʻlining ushbu qaydlari ham dalillaydi: “Zevarxon” dostoni haqida. Baʼzi qariyalar bu dostonni avval ertak boʻlib shoir Jolmon tomonidan doston qilingan deydi. Lekin bu aniq gap emas. “Gul va Sanobar” dostoniga qarasangiz baʼzan “Zevarxon” dostoniga oʻxshagʻanini koʻrasiz. Menimcha u ham “Zevarxon” dostonining boshqa bir varianti boʻlsa ajab emas. “Zevarxon” dostoni Qoʻrgʻon qishlogʻida ikki-uch martagina aytilib, keyin bu doston aytilmay yoʻqolib ketgan [3.]”. Bu izohlar bizga “Zevarxon” bir vaqtlar ogʻzaki ijroda yashab, keyinchalik unutilgan doston boʻlganligini bildiradi.

“Zevarxon” dostonining Rahmatulla Yusuf oʻgʻli versiyasining shakllanishi, genezisi baxshining oʻzi tomonidan maʼlum qilingan. Shu sabab biz bu axborotlarni jamlab, taqdim qilish bilan cheklanamiz. Mavjud manba va maʼlumotlar va doston matnidan kelib chiqib, quyidagi xulosaga keldik: Rahmatulla Yusuf oʻgʻli repertuaridagi “Zevarxon” dostoni uch manbaga asoslanib yuzaga kelgan. Birinchisi, ustozlardan eshitgan ayrim parchalar asosida. Baxshi

dostonning ayrim parchalarini ustozlari – Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Po‘lkan shoirlardan eshitgan. Doston Po‘lkan shoir repertuarida “Zevaxon” nomi bilan qayd qilingan bo‘lsa-da, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li uni ehtimol “Sanobarxon” deb atagan. Fikrimizni tasdiqlovchi manba – baxshidan 1927-yilda H.Zarifov yozib olgan “G‘azali Sanobar”[4]dir. Bu g‘azal doston bosh qahramoni Sanobarning sevgilisi Gulga qarab aytgan so‘zlaridan iborat.

Baxshi dostonidagi ikkinchi syujet liniyasidagi bir qancha voqealarni: Sanobarning qaroqchilar qo‘liga tushishi va ularni hiyla bilab aldab, qochib ketishi; uzoq sarguzashtlardan keyin Istambulga borib qolishi, Istambulda podsho bo‘lib davlatni boshqarishi; bu vaqtda o‘z suratini shahar darvozasiga ildirib qo‘yishi va Zevaxon bilan uchrashishga muyassar bo‘lishi kabi epizodlarni ustози Ergash Jumanbulbuldan 1935-yilda eshitgan [2.9-bet]. Afsuski, Po‘lkan shoirdan eshitilgan qismlar aniq belgilanmagan, ammo dostonni ikki ustozdan eshitgani aniq.

Ikkinchisi, dostonning ayrim parchalarini savodxon hamqishloqlari va qo‘shiqchilardan eshitish orqali. Baxshi “Zevaxon” dostonining boshlang‘ich qismini, ya‘ni Zevaxonning bog‘ sayriga chiqib uxlab qolishi, tushida Sanobar bilan uchrashgani va sevib qolgani, sevgilisini axtarib chiqishdan uning Mehrangiz bilan uchrashuvigacha bo‘lgan voqealarni bayon qiluvchi qismlarni 1933-yili Mulla O‘tap Hofiz degan qo‘shiqchidan eshitgan. Mulla O‘tap asli Qorakisa urug‘idan bo‘lib, dostonning nasriy qismlarini rivoyat tarzida aytib yurgan. O‘zi savodxon bo‘lgan. Rahmatulla Yusuf o‘g‘li unda “Sanobar” xalq kitobining parchalarini ko‘rgan. Bu Mulla O‘tap Hofiz “Sanobar”ni kuylab yurganini bildiradi. Zotan, baxshi eshitgan bu o‘rinlar “Kitobi Sanobar” bilan aynan bir xil. Dostonning bir necha qismlari esa, xususan, Zevaxonning barzangilar qo‘liga tushishi, ulardan qutilib, ro‘dapolarga duch kelishini tasvirlovchi epizodlarni Bo‘ta baxshidan Nurota tumanidagi Chinoq qishlog‘ida kuylaganida, 1932-yilda eshitgan. Ammo baxshi dostonni to‘liq aytmagan. Yana ayrim parchalarini Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining shogirdi Xoliquldan eshitgan bo‘lib, usta Xoliqul dostonni ertakday qilib aytib yurgan [2.9-bet].

Uchinchidan, Rahmatulla Yusuf o'g'lining o'zi ham "Sanobar" xalq kitobi bilan tanish bo'lgan. Bu haqida ham R.Radjabov quyidagi ma'lumotlarni beradi: Baxshining aytishicha, 1931-yilda u "Kitobi Sanobar"ning ikki xil litografik nusxasi bilan tanishgan. Ularning biri rasmi nashrdir... Kitob Buxorodagi L.N.Levin tipo-litografiyasida bosilgan. Ikkinchi nusxaning hajmi esa ancha katta – 96 sahifadan iborat [5.]. Fikrimizcha, birinchi rasmi nusxa O'z FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 581-inventar raqamda saqlanadi. Bu nusxa 59 bet hajmli bo'lib, Buxoroda nashr qilingan. Ikkinchi 96 bet hajmli nusxa esa qo'lyozmalar fondida 10645-inventar raqamida saqlanayotgan Samarqandda 1905-yilda Foziljon Xushdi nashriyotida bosilgan 24x15cm hajmli nusxa bo'lsa kerak. Baxshi eshitgan va va o'qigan parchalarni ijodiy qayta ishlash orqali yangi syujet yo'nalishlari va epizodlar bilan boyitgan. Rahmatulla Yusuf o'g'li versiyasi shu tarzda shakllangan bo'lib, baxshining o'zi tomonidan ko'chirilib, O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Folklor arxiviga topshirilgan. Shu qo'lyozmada bu versiyaning to'la shakllanishi haqida baxshi quyidagilarni ham yozib qoldirgan: "1941-yili "Zevarxon" dostonini salgina orolantirib, Guliston jurnali redaksiyasiga yubordim. Toshkentdan yozuvchilar meni chorlag'andek bo'ldilar. O'sha vaqtlarda mamlakatimiz xavf ostida turg'on payt edi. Men qo'rqib Toshkentga borish u yoqda tursin, hatto tog' sayriga chiqolmas edim. Yana elimizdan tuman ko'tarilib, bog'larga gullar va har xil o'simliklar yashnab qoldi. Ko'nglinga katta bir surur quyuldida, bu "Zevarxon" dostonini demak ikkinchi bora tuzatdim. Rahmatulla Yusupov. 11.06.1947 [3]". Ko'ryapmizki, "Zevarxon" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li versiyasi Rahmatulla Yusuf o'g'li tomonidan ustozlaridan eshitganlari va "Kitobi Sanobar" asosida shakllantirilgan. Shu sabab bu versiya "Zevarxon" nomi bilan qayd qilinsa-da, "Sanobar"ning mustaqil, ijodiy qayta ishlangan versiyasi sifatida baholanishi zarur. Fikrimizni teparog'da "Kitobi Sanobar" va "Zevarxon" dostonlaridagi ba'zi motivlar qiyosi ham tasdiqlaydi.

"Zevarxon" dostonining jonli ijroda yozib olingan yagona versiyasi Fozil Yo'ldosh o'g'li repertuariga oid. Baxshi bu dostonni, ehtimol, ustози Yo'ldosh

shoirdan o'rgangan. Fozil shoirning aytishicha, Yo'ldosh va Suyar shoirlar ham kuylaganlar. Ammo farqli uslubda kuylaganlar. Shu sababli Fozil shoir "Zevarxon" dostonini Suyar shoir "suluv qilib aytar edi", Yo'ldosh shoir "botir qilib aytadi"[1.42-b], deb baholagan edi. Afsuski, dostonning Yo'ldosh shoir va Suyar shoir variantlari yozib olinmagan. Bu holat Fozil shoir versiyasining mustaqil yoki qayta ishlab, to'ldirilgan xarakterini aniqlashni murakkablashtirgan.

Dostonni ijro qilishda har bir baxshining o'z uslubi va badihago'yiligi, ijodiy laboratoriyasi, an'anaga munosabati bilan bir qatorda, ta'lim olgan ustoz, mansub bo'lgan ijro maktabi, estetik qarashlari ham aks etadi. Bu jihat Yo'ldosh shoirning "Zevarxon" dostonini "botir qilib aytgani" talqinini, xususan, jang sahnalari, qahramonlik epizodlarining keng va obrazli tasvirida yaqqol ko'rinadi. Masalan, Zevarxon va vaziri Hasanxonlarning Molikshoh qo'shini bilan bo'lgan jang sahnalari tasvirida. Dostonda Shamshod podshosi Molikshoh Malikai Xubon Sa'dulla kal tomonidan olib qochilganidan keyin lashkari bilan shaharni o'rab oladi. Zevarxon va Hasanxon shahardan chiqishda Molikshoh qo'shinlariga duch kelishadi va qattiq jang bo'ladi. Hasanxon yakka o'zi qahramonlik ko'rsatib, Molikshoh qo'shinining ko'pini qirib tashlaydi. Shu sahnadagi jang tasvirida hech shubhasiz Yo'ldosh shoirning ta'siri sezilib turadi. Yana shu o'rindagi muhim bir jihat katta qo'shinga qarshi qahramonlikni namoyon qiluvchi epizod "Zevarxon" dostonining faqat Fozil shoir variantidagina mavjud.

Fozil Yo'ldosh o'g'li repertuaridan yozib olingan "Zevarxon" dostoni Rahmatulla Yusuf o'g'li versiyasidan prinsipial jihatdan farq qiladi. Bu versiyaning genezisini aniqlash ham jiddiy mas'uliyat talab qiladi. Sababi, dostonning Yo'ldosh va Suyar shoirlar repertuarida bo'lgani haqida aytilgan dalillar mavjud bo'lsa-da, yozib olinmagani sababidan uning Fozil shoir versiyasiga nisbatan variant, versiya yoki umuman "Sanobar"ning bir versiyasi ekanligi haqida fikr bildirolmaymiz. Yo'ldosh va Suyar baxshilardan avval biror baxshi kuylagani haqida ham ma'lumotlar uchramaydi. Yo'ldosh shoir ko'plab shogirdlar yetishtirgan tajribali ustoz bo'lganligi ma'lum. Yo'ldosh shoir boshqa shogirdlariga ham bu dostonni o'rgatgan va yana boshqa biror baxshi repertuarida

ham mavjud bo'lgani qayd qilinishi lozim edi, nazarimizda. "O'zbek xalq qahramonlik eposi"da Islom shoir repertuarida ham "Sanobarjon" nomi bilan mavjudli axboroti berilganini yuqorida ham aytgan edik. Zero bu monografiya mualliflari "Zevarxon"ni "Sanobar"ning og'zaki varianti sifatida qaraganlar.

"Zevarxon" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li versiyasining boshlanishi aksariyat o'zbek xalq dostonlari kabi befarzandlik bilan boshlanmaydi. Doston Malikai Xubonning tavsifi bilan boshlanadi. Bu epizod ham aslida o'zbek xalq dostonlariga xos. Malikai Xubonning G'olib ismli yurtida obro' topgan zargarning qizi ekanligi va shu yurt podshosi Molikshoh qizga xaridor bo'lib, menga tegadi, deb har kuni yuz tanga nafaqa berishi kabi epizodlar "Kuntug'mish" dostonidagi Xolbeka epizodi tavsifi bilan mushtarakdir. G'oyibona oshiqlik an'anaviy tarzda tush orqali yuz bermasa-da, Malikai Xubon nishona tarzida tarog'i va uzugini qoldiradi. Shu bosh qahramonning shahzodaligi, ishq dardiga yo'liqib, betob bo'lishi, farzandining dardiga da'vo topolmagan otaning xohlamasa-da, farzandini safarga yuborishi, hamrohlaridan biror sabab bilan ayrilib, safarni yolg'iz davom qilishi, taqdirdan, falakdan shikoyat, yor hijroni aks etgan lirik sahnalar orqali doston an'anaviy epik struktura asosida rivojlanadi. Shu bilan birga "Zevarxon" dostonida ertaklarga xos motivlar ham sezilarli darajada bo'lib, asarning genezisida ertaklar ta'siri muhim rol o'ynaganini anglash mumkin. Zangilar bog'iga borib qolish, hamrohlaridan ayrilib, tilla qafasga solinish, tabiblik qilish, Semurg' qushi yordamga kelishi, Malikai Xubonning qaroqchilar qo'liga tushishi va qochishi, maymunlar tomonidan o'zlariga podsho sifatida olib ketilishi, odamlari kechasi itga aylanadigan shaharda bo'lish kabi epizodlar shular jumlasidandir. Bu epizodlarning genezisi bir necha o'zbek xalq ertaklariga va "Ming bir kecha" ertaklariga borib taqaladi.

"Zevarxon" dostonida Malikai Xubon(F.Y), Sanobar(R.Y)lar faol obraz bo'lib, alohida syujet chizig'iga ega. Dostondagi bu syujet chizig'ida (Fozil Yo'ldosh o'g'li versiyasi nazarda tutilmoqda) joylashgan motivlar genezisi o'zbek xalq ertaklariga borib taqaladi. Doston suyujetidagi mazmun-mohiyat qator xalq ertaklarida uchraydi. Jumladan, o'zbek xalq ertaklarida "...doston mazmuni asosan

“Ozodachehra”, “Malikayi Husnobod”, “Tuhmatga uchragan kelin” kabi ertak suyujeqlariga yaqin bo‘lib, g‘oyaviy-tematik xususiyatlari jihatidan aynanlikka ega” [6. 98-b]. Bu ertaklarda ayol-qizlar erkaklar kiyimini kiyib olishganida (Malikayi Husnobod mustasno) boshlariga davlat qushi qo‘nib, podsho bo‘lishadi. Suratlarini shahar darvozasiga ilib qo‘yadilar va adolatli hukmdor sifatida namoyon bo‘ladilar. Ularga tuhmat, zulm, nohaqlik qilganlarni jazolaydilar. “Zevaxxon” dostonining Fozil shoir versiyasida Malikai Xubon qaroqchilarga uchrab qoladi va aql, hiyla bilan qaroqchilarning yaxshi kiyimlarini kiyib, qochib ketadi. Ertaklarda aynan bu epizod uchramaydi. Bu epizod “Qorasochxon” ertagida biroz farqli shaklda mavjud. “Qorasochxon” ertagining bosh qahramoni bir-biri bilan talashayotgan aka-ukalardan bir sipohining “men qo‘limdagi o‘z yoyimni otaman! Kimki o‘sha yoyini oldin olib kelib menga topshirsa, qiz o‘shaniki”, - deb shart qo‘yganidan keyin, sipohi o‘z kiyimlarini qizga kiydirib qochib ketadi. Qiz sipohining uyiga bormay, to‘ppa-to‘g‘ri shaharning gavjum yeriga jo‘naydi. Faqat Qorasochxon baxt qushi boshiga qo‘nib, shaharga podsho qilib ko‘tarilgach suratini chizdirib, darvoza tepasiga emas, o‘zi yasatgan hovuz o‘rtasiga o‘mashtirib qo‘yadi.

Dostonda yana bir diqqatga sazovor epizod Zevaxxonning daryoda soli bo‘linib, Hasanxon bilan ayro taraflarga ketib qolishidan keying sarguzashtlari. Zevaxxon changali Mozandarondan chiqib qoladi va atrofini o‘rab olgan maymunlar uni o‘zlariga podsho qilish uchun olib ketadilar. Bu epizod o‘zbek xalq ertaklarida uchramaydi. Ehtimol, bu epizod “Ming bir kecha” ertaklaridagi “Sayfulmuluk” [7.175–176-b] qissasi ta’sirida yuzaga kelgan. Sayfulmuluk ham bir daraxtzorda bahaybat maymunlar to‘dasini uchratadi. Ularning podshosi hali soqoli chiqmagan uzun bo‘yli bir yigit bo‘lib, Sayfulmuluk bir oy shu yerda mehmon bo‘ladi. Fikrimizcha, bu motivni baxshi ijodiy laboratoriyasida qayta ishlab, dostonga olib kirgan.

Turkiy epik an’anada qahramonni parilar yurtiga yoki biror noyob buyumni izlab uzoq o‘lkalarga borishida yordamchi bo‘ladigan obraz – Semurg‘ qushidir. U, odatda, o‘zbek xalq ertaklarida bolalarini qutqargan qahramonga yaxshilik qilib,

uni manziliga olib borib qo'yadi. Dostonlarda bu vazifani, odatda, qahramonning oti bajaradi. "Zevarxon"ning Fozil shoir versiyasida ham Semurg qahramonga manziliga yetishida yordam beradi. Fozil shoir versiyasiga "Sanobar"ning ta'siri shu motivda seziladi. Fikrimizcha, Semurg qushi bilan bog'liq epizodni baxshi aynan "Kitobi Sanobar" ta'sirida kiritgan. Bunday fikrga kelganimizning sababi, "Zevarxon"da ham, "Sanobar"da ham Semurgning qahramonga nima sababdan yordam ko'rsatishi asoslanmagan.

"Zevarxon" dostonining Fozil Yo'ldosh repertuariga oid versiyasi – o'zbek xalq og'zaki ijodida epos va ertak elementlarini mohirona sintez qilgan o'ziga xos epik namuna sifatida ajralib turadi. Fikrimizcha, aynan shu versiya baxshi ijodiy laboratoriyasida shakllangan mustaqil asar. Ustozlari Yo'ldosh va Suyar shoirlarning "botir" va "suluv" qilib aytgan dostonlari "Zevarxon" ekanligiga biror manba guvohlik qilolmaydi. Bu doston, ehtimol, "Sanobar" bo'lishi ham mumkin. Jolmon baxshiga qadar baxshilarning aytib yurgan ertagi forslarning o'sha mashhur "Gul Sanuvbarga nima qildi?" qissasi bo'lsa kerak. Bu qissa baxshilarimiz tomonidan qayta ishlanib, ertak qilib aytilishi natijasida o'zbek xalq ertaklari safidan o'rin olgan. Fozil shoir repertuaridagi "Zevarxon" "Sanobar"dan farqli, mustaqil epik asar bo'lgani sababidan qahramonlariga Zevarxon va Malikai Xubon nomlarini tanlagan. Zevarxon nomini berish orqali o'z qahramonining kuchli, ruhan, ma'nan va jismonan ziynatli ekanligini bildirmoqchi bo'lgan. Malikai Xubon nomini berish orqali esa qahramon oshiq bo'lgan qiz go'zal pari qizigina emas, balki ham go'zal, ham ma'nan yetuk, zehnli faol ayol ekanligini ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, "Zevarxon" dostonining tarixiy asoslari turkiy folklorga mushtarakligini aks ettirgan, o'zbek dostonchilik an'alarining ishqiy-romanik yo'nalishiga mansub bo'lgan yuksak badiiy namunalaridan sanaladi. Doston Fozil Yo'ldosh o'g'lidan "Zevarxon" nomi bilan yozib olingan. Rahmatulla Yusuf o'g'li repertuariga mansub "Zevarxon" dostonini esa baxshining o'zi qo'lda ko'chirib ZO'FA arxiviga topshirgan. Baxshi bu dostonni ustozlaridan eshitganlari va "Kitobi Sanobar" asosida shakllantirilgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li

repertuaridan yozib olingan “Zevaxon” dostoni Rahmatulla Yusuf o‘g‘li versiyasidan prinsipial jihatdan farq qiladi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li repertuariga oid “Zevaxon” dostoni – o‘zbek xalq og‘zaki ijodida epos va ertak elementlarini mohirona sintez qilgan o‘ziga xos epik namuna bo‘lib, baxshi ijodiy laboratoriyasida shakllangan mustaqil asardir. Dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida ishqiy-lirik ruh, sof baxshilik poetikasi kuchli bo‘lsa, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li variantida esa voqeaviylik va sarguzasht ruhi ko‘proq bo‘lib, arab-fors yozma dostonlariga yaqinlik seziladi. Ikkala versiyaning biri Bulung‘ur va biri Qo‘rg‘on dostonchilik maktablarida kuylanishi, ustoz-shogirdlik an‘anasi orqali saqlanib qolganligi hamda xalq xotirasida parcha-parcha holatda yashab qolganligi og‘zaki an‘ananing ijodiy barhayotligini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – Москва, 1947.
2. Раджабов Р. “Зевархон” дostonинг генезиси, тарқалиши ва ғоявий-бадий хусусиятлари: филология фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 1973. – Б.143.
3. ZO‘FA. Inv.№ 1445.
4. ZO‘FA. Inv.№ 91.
5. Раджабов Р. “Зевархон” дostonининг яратилиш тарихи // Гулистон журнали, 1973. – № 2.
6. Imomov.K. Dostonlarda ertak motivlari //Fozil shoir. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 3-kitob.– Toshkent,1973.
7. Сайфулмулук қиссаси //Минг бир кеча. 7-том. – Тошкент,1963. – Б.175-176.